

KONFERENSIYALAR UZ

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUL, 2025-YIL





O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA‘LIM ISTIQBOLLARI

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-222-0

O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 49 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 10-iyul

Mas’ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

ISBN 978-9910-09-222-0

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

G`ulomov Ibrohim

MANG`IT NA`MOYONIDAN OLINGAN NIOBIY VA TANTAL SAQLAGAN MA`DANLARNI
BOYITISH.....4-10

TARIX FANLARI

Xolova Umida, Jalolova Zarina

MA`RIFATPARVARLIK RUHI VA AYOL OBRAZINING YUKSALISHI: DILSHODI BARNO
NIGOHIDA 11-14

Sobirov Sardorbek

YETTISHAHAR DAVLATI ASOSCHISI YOQUBBEK BADAVLAT FAOLIYATIGA
BIR NAZAR..... 15-19

FALSAFA FANLARI

Mamadiyarova Malika

OILAVIY QADRIYATLARNING AXLOQIY XUSUSIYATI 20-22

FILOLOGIYA FANLARI

Xudoynazarova O`g`lonoy

TIBBIY DISKURSDA DINIY BARQAROR BIRIKMALAR 23-25

Abdukaxarova Gulnoza

O`ZBEK TILIDA IQTISODIY ANGLISIZMLARNING SHAKLLANISHIGA TA`SIR
ETUVCHI OMILLAR 26-28

Mustafayev Ozod

O`ZBEKISTONDA "RAQAMLI (INTERAKTIV) ADABIYOT" MUHITINING SHAKLLANISHI VA
ADABIY ASARLARNING ONLAYN PLATFORMALARDAGI EVOLUTSIYASI 29-32

YURIDIK FANLARI

Allamberganova Farida

ISTE`MOLCHI HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA ROMAN-GERMAN VA ANGLO-SAKSON
HUQUQIY TIZIMLARIDAGI O`ZIGA XOS XUSUSIYATLAR 33-40

PEDAGOGIKA FANLARI

Rasulov Erkin

KOGNITIV HAMDA METAKOGNITIV FAOLIYATLAR O`RTASIDAGI BOG`LIQLIK VA ULARNI
RIVOJLANTIRISH USULLARI 41-45

PSIXOLOGIYA FANLARI

Smetova Gulzar

TIBBIYOT XODIMI FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI..... 46-48

PEDAGOGIKA FANLARI

KOGNITIV HAMDA METAKOGNITIV FAOLIYATLAR O'RTASIDAGI
BOG'LIQLIK VA ULARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI**Rasulov Erkin Madraimovich**

Qo'qon davlat universiteti, tayanch doktoranti

tel.: 90-293-03-88

email: erkinrasulov1807@kspi.uz

ORCID: 0000-0003-0120-3865

Annotatsiya. Ushbu maqolada kognitiv va metakognitiv faoliyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Kognitiv bilimlar va metakognitiv nazoratning talabalarning tafakkur jarayoni, o'quv faoliyati va muammoli vaziyatlarga yondashuvdagi roli yoritiladi. Shuningdek, ushbu faoliyat turlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali didaktik usullar, pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan strategiyalar ko'rib chiqiladi. Maqola ta'lim jarayonida talabalar bilim olish jarayonini o'zini baholash va faol fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: kognitiv hamda metakognitiv faoliyat, metakognitiv strategiyalar, didaktik imkoniyatlar, mustaqil o'rganish, ta'lim texnologiyalari, innovatsion pedagogika

THE RELATIONSHIP BETWEEN COGNITIVE AND METACOGNITIVE
ACTIVITIES AND METHODS OF THEIR DEVELOPMENT**Rasulov Erkin Madraimovich**

Kokand State University, doctoral student

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of the interrelation between cognitive and metacognitive activities. It highlights the role of cognitive knowledge and metacognitive control in students' thinking processes, learning engagement, and approaches to problem-solving. The paper also examines effective didactic methods, pedagogical approaches, and strategies developed based on innovative technologies that support the development of these activities. The article offers suggestions and recommendations for enhancing students' self-assessment and active thinking skills during the learning process.

Key words: cognitive and metacognitive activity, metacognitive strategies, didactic opportunities, independent learning, educational technologies, innovative pedagogy.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-222-0/uzb-09>

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri - talabalarga shunchaki tayyor bilim berish emas, balki ularning mustaqil fikrlashi, muammoni mustaqil hal etishi, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu esa o'z navbatida, ta'lim jarayonida kognitiv va metakognitiv faoliyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishini talab etadi. Kognitiv faoliyat, ya'ni axborotni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va amalda qo'llash jarayonlari - insonning intellektual o'sishini belgilovchi asosiy jihatlardan biridir. Metakognitiv faoliyat esa shaxsning o'z bilimlarini, o'rganish uslublarini, tafakkur strategiyalarini anglash va boshqarish qobiliyatidir. Ushbu ikki faoliyat turi nafaqat bir-biriga chambarchas bog'liq, balki o'quvchining o'z ta'lim faoliyatini ongli ravishda boshqarishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Ta'lim oluvchilarda kognitiv va metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan chambarchas bog'liq. O'quvchilarning faol fikrlashi, o'z-o'zini

nazorat qilishi, o'quv maqsadlarini belgilashi va unga erishish yo'llarini tanlashi uchun muhit yaratish pedagogning asosiy vazifasiga aylanmoqda. Aynan shu nuqtada ta'limda qo'llanilayotgan didaktik yondashuvlar va texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. Jumladan, muammoli ta'lim, reflektiv o'qitish, interfaol metodlar, loyiha asosidagi yondashuv va masofaviy ta'lim platformalari orqali talabalarning fikrlash jarayoniga faol aralashuvi ta'minlanmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan qator me'yoriy hujjatlar, xususan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son Qarori bilan tasdiqlangan "Kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi nizomda ham zamonaviy o'quv metodlari va baholash mexanizmlarini tatbiq etish, talabalarning mustaqil ta'lim olishini qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda¹. Ushbu hujjat talabalarning bilim darajasini baholashda turli shakllardan - yozma va og'zaki topshiriqlar, amaliy ishlar, portfoliolar va loyihalardan samarali foydalanishni ko'zda tutadi. Bu esa bevosita metakognitiv faoliyatni rag'batlantiruvchi omillardan biridir.

Kognitiv va metakognitiv ko'nikmalar o'rtasidagi bog'liqlik shundaki, birinchisi o'quv jarayonining mazmuniy tomonini tashkil etsa, ikkinchisi esa bu jarayonni qanday boshqarishni o'rgatadi. Masalan, talaba biror mavzuni o'zlashtirishda axborotni tahlil qilish, solishtirish, mantiqiy bog'liqliklarni anglash orqali bilim hosil qiladi (kognitiv faoliyat); biroq bu bilimni qanday o'rganayotganini tushunish, zarur bo'lsa, o'z strategiyasini o'zgartirish, vaqtini samarali boshqarish va o'z-o'zini baholash kabi amallar metakognitiv faoliyat doirasiga kiradi. Shu boisdan, zamonaviy ta'limda bu ikki faoliyat turini uyg'unlikda rivojlantirish eng muhim vazifalardan biridir.

Mazkur maqolada kognitiv va metakognitiv faoliyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularni rivojlantirishning didaktik asoslari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning bu jarayondagi o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarning o'z-o'zini baholash, mustaqil bilim olish va hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Kognitiv va metakognitiv faoliyatlarni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida keng tadqiq etilayotgan muhim yo'nalishlardan biridir. Bu boradagi nazariy qarashlar va amaliy yondashuvlar talabalar bilim olish jarayonining samaradorligini oshirishda asosiy omil sifatida qaralmoqda. Mazkur masalaga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kognitiv jarayonlar – ya'ni idrok, tafakkur, xotira, diqqat, tahlil, sintez va xulosa chiqarish kabi faoliyat turlari bilim olish jarayonining negizini tashkil etadi. L.S. Vygotskiy, J. Piaget, J. Bruner kabi olimlarning ilmiy ishlari kognitiv taraqqiyotning bosqichma-bosqich rivojlanishini o'rganishga, ularning ta'limdagi roli va imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan². Xususan, J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida o'quvchining bilish qobiliyatlari yoshga qarab qanday o'zgarishi

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 824-sonli Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 09/20/824/1689-son.

² Daminova Sangina. KOGNITIV FAOLIYAT TUSHUNCHASI VA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA TUTGAN O'RNI. Zenodo, 2025, doi:10.5281/zenodo.14917806.

tushuntiriladi, Vygotskiy esa bilish faoliyatini ijtimoiy muhit va madaniy vositalar orqali shakllanishiga urg'u beradi.

Metakognitiv faoliyatlar esa o'quvchining o'z bilimlarini anglash, o'rganish uslublarini nazorat qilish, o'zini baholash va strategik qarorlar qabul qilishga doir qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu boradagi muhim tadqiqotlar J. Flavell¹ va A. Brown² tomonidan olib borilgan bo'lib, ular metakognitiv ong va o'rganishni boshqarish jarayonlarini asoslab bergan. Ularning fikricha, metakognitiv strategiyalarni egallagan talabalar o'quv topshiriqlarini puxta rejalashtirish, nazorat qilish va baholash orqali bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga erishadi³.

Zamonaviy adabiyotlarda bu faoliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan didaktik metodlar keng ko'lamda bayon etilgan. Jumladan, R. Marzano, D. Kuhn, B. Zimmermanlarning tadqiqotlarida muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish, reflektiv yondashuv, faol o'rgatish metodlari va zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Interfaol usullar, amaliy topshiriqlar, guruhviy muhokamalar, aqliy hujum, konseptual xaritalar, kundalik yuritish, portfoliolar kabi faoliyatlar kognitiv va metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kognitiv va metakognitiv faoliyatlarni rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ilmiy manbalarda bu faoliyatlarning talabalarning mustaqil o'rganish qobiliyati, tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash salohiyatini shakllantirishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Ayniqsa, zamonaviy didaktik metodlar - muammoli ta'lim, refleksiya, interfaol usullar orqali bu ko'nikmalarni shakllantirish mumkinligi ta'kidlanadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar bu jarayonni yanada samaraliroq qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kognitiv va metakognitiv faoliyatlar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni uyg'un rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar bilan olib borilgan kuzatuvlar, suhbatlar va savolnomalar tahlili asosida shunday xulosaga kelindi: faqatgina bilim berishga asoslangan an'anaviy yondashuv talabalarda mustaqil fikrlash, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash kabi ko'nikmalarni yetarli darajada shakllantirmaydi. Aksincha, kognitiv va metakognitiv strategiyalarni birgalikda qo'llagan ta'lim metodlari talabalar faoliyatini faollashtiradi, ularning motivatsiyasini oshiradi va chuqur bilim olishiga xizmat qiladi.

Metakognitiv yondashuvlarning joriy etilishi orqali talabalar o'z o'quv strategiyalarini ongli ravishda boshqara boshlaydilar. Jumladan, dars jarayonida reflektiv yozuvlar yuritish, o'z-o'zini baholash jadvalarini to'ldirish, bilim darajasini mustaqil nazorat qilish va o'z xatolarini tahlil qilish orqali ularning o'z o'rganish jarayoniga bo'lgan mas'uliyati ortadi. Shu bilan birga, kognitiv faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar - tahliliy savollar, muammoli vaziyatlar, guruhviy muhokamalar va konseptual xaritalar tuzish - o'zlashtirish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan - onlayn platformalar, elektron

¹ Flavell J.H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry // American Psychologist. - 1979. - № 34. - P. 906-911.

² Brown A.L. Metacognition executive control, self-regulation and other more mysterious mechanisms // Metacognition, Motivation, and Understanding. Ch. 3, New Jersey, 1987.

³ Гулямова, М., & Отунбаева, У. (2024). O'qish qobiliyatini rivojlantirishda metakognitiv o'qish strategiyalarining o'g'ni. ЛИНГВОСПЕКТР, 2(1), 120-121.

portfoliolar, raqamli baholash tizimlari - foydalangan holatda talabalarning metakognitiv faolligi yuqori darajada bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'zlashtirish darajasi va o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi.¹

Kognitiv va metakognitiv faoliyatlar o'rtasidagi bog'liqlik. Ko'plab zamonaviy tadqiqotlar kognitiv va metakognitiv faoliyatlarning o'zaro bog'liqligini ta'kidlaydi. Kognitiv faoliyatlar axborotni qabul qilish, qayta ishlash va eslab qolish jarayonlarini o'z ichiga olsa, metakognitiv faoliyatlar esa bu jarayonlarni rejalashtirish, nazorat qilish va baholashga xizmat qiladi. Masalan, o'qish jarayonida talaba matn mazmunini tushunish uchun kognitiv strategiyalardan (masalan, asosiy g'oyani aniqlash, muhim ma'lumotlarni ajratib olish) foydalanadi, metakognitiv strategiyalar esa o'qish maqsadini belgilash, o'z tushunishini monitoring qilish va natijalarni baholashga yordam beradi².

Kognitiv va metakognitiv faoliyatlarni rivojlantirish usullari. Adabiyotlarda kognitiv va metakognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun quyidagi didaktik va metodik yondashuvlar tavsiya etiladi:

Muammoli ta'lim va interfaol metodlar: Talabalarni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va yangi bilimlarni amalda qo'llashga undaydi. Bu usullar orqali talabalar o'z bilimlarini chuqurroq o'zlashtiradilar va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Metakognitiv strategiyalar: O'qish jarayonini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash, o'qish maqsadlarini belgilash, fon bilimlarini faollashtirish, muammolarni hal qilish va yordamchi strategiyalardan foydalanish (masalan, eslatma olish, ajratib ko'rsatish) talabalarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini oshiradi.

O'yin va tajriba asosidagi mashg'ulotlar: Ayniqsa, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalarning kognitiv va metakognitiv rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun o'yin, tajriba va muloqotga boy muhit yaratish tavsiya etiladi³.

Motivatsion va hissiy yondashuvlar: Kognitiv faoliyatni rivojlantirishda motivatsiya va ijobiy hissiy fon muhim rol o'ynaydi. Bu esa talabalarning o'quv jarayoniga faol va ijobiy munosabatda bo'lishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, kognitiv va metakognitiv faoliyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur anglagan pedagog ta'lim jarayonini samaraliroq tashkil eta oladi. Shu bois, bu ikki faoliyatni uyg'un holda rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

XULOSA. Kognitiv va metakognitiv faoliyatlarni rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayon talabalarning bilim olish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv ko'nikmalar orqali talabalar nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, muammolarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar topish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Metakognitiv faoliyat esa o'z-o'zini nazorat qilish, o'rganish strategiyalarini tanlash

¹ Vukman, Karin Bakracevic. "Developmental differences in metacognition and their connections with cognitive development in adulthood." *Journal of adult development* 12 (2005): 211-221.

² Madraimovich, Rasulov Erkin. "TALABALARNING FAOLLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASHDA ELEKTRON PORTFOLIODAN FOYDALANISH." *Science and innovation* 3.Special Issue 36 (2024): 82-86.

³ Khushnazarova, M. N., & Rasulov, E. M. (2023). EFFECTIVE ASPECTS OF APPLYING METACOGNITIVE METHODS TO UNIVERSITY STUDENTS

va o'z faoliyatini baholash imkoniyatini beradi, bu esa mustaqil o'rganish va o'zini rivojlantirishga zamin yaratadi¹.

Innovatsion didaktik yondashuvlar – interfaol metodlar, multimediali vositalar, jamoaviy ishlash texnologiyalari va loyiha asosidagi ta'lim – talabalarning faolligini oshirib, ularning bilim sifatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. O'qituvchining konstruktiv feedback va individual yondashuvi esa har bir talabaga o'z potensialini to'liq namoyon etish imkonini beradi.

Umuman olganda, kognitiv va metakognitiv faoliyatlarni uyg'un rivojlantirish natijasida talabalar mustaqil fikrlash, hayotiy muammolarni hal qilish va doimiy o'zini rivojlantirish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Bu esa zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi – barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 824-sonli Qarori / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 09/20/824/1689-son.
2. Daminova Sangina. KOGNITIV FAOLIYAT TUSHUNCHASI VA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA TUTGAN O'RNI. Zenodo, 2025, doi:10.5281/zenodo.14917806.
3. Flavell J.H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry // American Psychologist. – 1979. – № 34. – P. 906-911.
4. Brown A. L. Metacognition executive control, self-regulation and other more mysterious mechanisms // Metacognition, Motivation, and Understanding. Ch. 3, New Jersey, 1987.
5. Гулямова, М., & Отунбаева, У. (2024). O'qish qobiliyatini rivojlantirishda metakognitiv o'qish strategiyalarining o'ri. *Лингвоспектр*, 2(1), 120-121.
6. Vukman, Karin Bakracevic. "Developmental differences in metacognition and their connections with cognitive development in adulthood." *Journal of adult development* 12 (2005): 211-221..
7. Madraimovich, Rasulov Erkin. "TALABALARNING FAOLLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASHDA ELEKTRON PORTFOLIODAN FOYDALANISH." *Science and innovation* 3.Special Issue 36 (2024): 82-86.
8. Khushnazarova, M. N., & Rasulov, E. M. (2023). EFFECTIVE ASPECTS OF APPLYING METACOGNITIVE METHODS TO UNIVERSITY STUDENTS.
9. Rasulov, E. M. (2022). The role of independent education in improving the quality of higher education. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, 5, 390-392.

¹ Rasulov, E. M. (2022). The role of independent education in improving the quality of higher education. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, 5, 390-392

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 10-iyul

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 49 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 10-iyul

ISBN 978-9910-09-222-0

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.